“PEDAGOGNING MAQOMI TO‘G‘RISIDA”GI QONUN TALABA NIGOHIDA: KASBIY KAFOLAT VA MOTIVATSIYA

Toshtemirov Qobuljon Qubbijonovich
Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti
Jo‘rayeva Dilafruz Iminjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
“Musiqa ta’lim yo‘nalishi” 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada 2024 – yil 1 – fevral oyida qabul qilingan “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi O‘RQ – 901 – sonli Qonunning mazmun – mohiyati bo‘lajak pedagoglar – bugungi talabalar nigohi orqali tahlil qilinadi. Maqolada qonunning yosh mutaxassislar uchun psixologik va ijtimoiy ahamiyati, kasbiy daxlsizlik hamda ta’lim sifatiga ta’siri yoritilgan.

Kalit so‘zlar: pedagog maqomi, talaba, motivatsiya, huquqiy himoya, kasbiy nufuz, majburiy mehnat, ijtimoiy kafolat.

Аннотация: В данной статье анализируется суть и значение Закона «О статусе педагога» (ЗРУ №901), принятого 1 февраля 2024 года, через призму взглядов будущих педагогов — сегодняшних студентов. В статье освещаются психологическая и социальная значимость закона для молодых специалистов, вопросы профессиональной неприкосновенности, а также его влияние на качество образования.

Ключевые слова: статус педагога, студент, мотивация, правовая защита, профессиональный авторитет, принудительный труд, социальные гарантии.

Abstract: This article analyzes the essence and significance of the Law “On the Status of a Teacher” (LRU-901), adopted on February 1, 2024, through the perspective of future educators — today’s students. The article highlights the psychological and social importance of the law for young specialists, professional immunity, and its impact on the quality of education.

Keywords: teacher status, student, motivation, legal protection, professional prestige, forced labor, social guarantees.

Jahonda turli xil kasblar mavjud bo‘lib, o‘qtuvchilik barcha kasblardan farq qiladi. Mavjud kasblar orasida eng mas’uliyatlisi “pedagog”lik kasbidir. Ushbu kasb kishilik tarixining butun rivojlanishi davomida, jamiyatning ijtimoiy shakllanishi jarayonida, shaxs kamolotini qaror toptirishga xizmat qiladigan eng muhim doimiy zaruratlardan biridir. “Pedagogika fani shaxsni shakilantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta’minlashga alohida hissa qo‘shadi”[5]. Ta’lim – tarbiya muayyan va eng muhim ijtimoiy ehtiyoj tariqasida juda qadimgi zamonlardayoq vujudga kelgan. O‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash, pedagogik g‘oyalarni hamda ta’lim mussasalarni tashkil etish jamiyatning g‘oyat zarur talablaridan biriga aylangan.

“O‘qituvchining istiqbol pedagogik strategiyasi faqat qog‘ozda qolib ketadigan rasmiy hujjat emas, balki u amaliyotda hayotga tatbiq etiladigan, o‘qituvchini motivatsiyaga undaydigan va uning faoliyatiga kuch bag‘ishlaydigan harakat manbaiga aylanishi kerak”.[6] Bugungi kunda o‘qituvchilik kasbi har tomonlama to‘xtovsiz o‘sib bormoqda, takomillashmoqda va yangi mazmun bilan boyimoqda. Pedagoglik mexnati o‘z mazmuni jihatidan chuqur, keng qamrovli dialektik mehnat hisoblanadi. Pedagoglik kasbining mazmuni va xarakteri obyektiv jihatdan muqarrar suratda o‘zgaradi: har bir tarixiy davr o‘ziga mos va hos pedagogini yaratadi. Unga shu jamiyat davri uchun kerakli mutaxasis kadrlarni tayyorlash uchun mas’uliyat yuklaydi. Mamlakatimizda ham mavjud pedagoglarga hamda bo‘lajak o‘qituvchi – yoshlarga kasbga bo‘lgan ishonchlari uchun keng imkoniyatlar yaratilgan.

Hozirgi kunda Yangi O‘zbekistonda ta’lim tizimini tubdan isloh qilishning asosiy bo‘g‘ini sifatida pedagogning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, 2024 – yil fevral oyida qabul qilingan “Pedagogning maqomi

[5] R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov. “Umumiy pedagogika” dasrlik. Toshkent-2018. 5-b.

[6] M.I.Ergashev “Musiqa ta’limida o‘quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish” PhD ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya ishi. Toshkent-2025. 96-b.

to‘g‘risida”gi Qonun soha xodimlari uchun tarixiy hujjat bo‘ldi. Ushbu qonun nafaqat amaldagi o‘qituvchilar, balki pedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun ham kelajakka bo‘lgan ishonch ko‘prigidir. O‘R – 901 – son Qonuning 3 – moddasida “Pedagogning huquqlari, sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘si davlat himoyasi ostida bo‘ladi”[7]. Bundan yaqqol ko‘rinib turibdi – ki, bugungi kunda pedagogik oliy ta’lim muassalarida taxsil olayotgan talaba – yoshlar uchun ishonch va ertangi kasbiy faoliyatining kafolati ekanligi.

Talaba – bu ertangi kunning pedagogi. Shu sababli, qonun normalari talabalar nigohida quyidagi muhim jihatlari bilan yuksak baholanmoqda: kasbiy daxlsizlik va davlat tomonidan mustahkam himoya. Ilgari o‘qituvchilarning o‘z vazifasiga kirmaydigan turli ishlarga (obodonlashtirish, turli hisobotlar, tadbirlarga odam yig‘ish) jalb qilinishi talabalarda o‘qituvchilik kasbiga nisbatan ma’lum ma’noda ikkilanish uyg‘otgan edi. Qonunning 6 – moddasida pedagoglarni kasbiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan ishlarga jalb qilishning qat’iyan taqiqlanishi, talabalarda “Men faqat o‘z soham bo‘yicha ishlayman” degan qat’iy ishonchni shakllantirdi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning huquqiy maqomi va qadrlanishini quyidagicha izohlash mumkin. Qonunda pedagogning sha’ni, qadr – qimmati va ishchanlik obro‘si davlat himoyasiga olinishi belgilangan. Talabalar buni o‘qituvchiga nisbatan, ota – onalar va jamiyat vakillari tomonidan hurmatsizlik qilish holatlariga chek qo‘yuvchi huquqiy qalqon sifatida ko‘rmoqda.

Ijtimoiy – iqtisodiy rag‘bat. Qisqartirilgan ish vaqti, uzoq muddatli haq to‘lanadigan yillik mehnat ta’tili va sog‘lig‘ini saqlash bo‘yicha imtiyozlar bo‘lajak kadrlar uchun eng katta ijtimoiy ko‘mak va himoya hisoblanadi. Bu talabalarni o‘qishni tamomlagandan so‘ng boshqa sohalarga ketib qolmasdan, aynan maktablarga qaytishiga sabab bo‘ladi.

Talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatmoqda – ki, mazkur qonun qabul qilingach, pedagogika yo‘nalishidagi talabalarda o‘z kasbiga nisbatan “kasbiy g‘urur” hissi ortgan. Qonun talaba uchun nafaqat majburiyatlar to‘plami, balki uning kelajakdagi ijtimoiy xavfsizligini ta’minlovchi kafolatnomadir.

[7] Pedagogning maqomi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 01.02.2024 yildagi O‘RQ-901-son

Xulosa qilib aytganda, “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonun talaba nigohida – adolatli ta’lim tizimining poydevoridir. Ushbu hujjat pedagogik yo‘nalishda taxsil olayotgan yoshlarni sifatli bilim olishiga va o‘z ustida ishlashiga undaydi. Zero, huquqlari himoyalangan, qadri baland va moddiy ta’minlangan o‘qituvchi sifatli ta’lim bera oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov. “Umumiy pedagogika”. dasrlik. Toshkent-2018.

2. M.I.Ergashev “Musiqa ta’limida o‘quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish” PhD ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya ishi. Toshkent-2025.

3. Pedagogning maqomi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 01.02.2024 yildagi O‘RQ-901-son.